



## O‘ZBEKCHA-INGLIZCHA TARJIMA LUG‘ATLARIDA FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING AKS ETTIRISH MASALALARI

Pulat Fozilov

ToshDO‘TAU mustaqil tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15284174>

**Annotatsiya:** Maqolada o‘zbek-ingliz tarjima lug‘atlarida fiziologik holat fe‘llarining berilishi masalalari yoritilgan. Ikki tilli tarjima lug‘atlarida mazkur fe‘llarni aks ettirishdagi leksikografik tamoyillar, so‘zlarni izohlash prinsiplari, leksik-semantik tizimi, grammatik tavsiflari qiyosan o‘rganilgan.

**Kalit so‘zlar:** leksikografik tamoyil, diaxron va sinxron aspekt, leksik va fonetik ko‘rsatkich, grammatik tavsif, leksik-semantik tizim, semantik ekvivalent.

Tarjima lug‘atlari uch soha taraqqiyotida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, til ta‘limida ular eng muhim vokabulani shakllantirish uchun asosiy manba bo‘ladi. So‘zning talaffuzi, grammatik xususiyatlari va nutqda qanday qo‘llanishi haqida dalolat beradi. Polifunksional tarjima lug‘atlarida so‘z sinonimlari, unga yaqin boshqa leksemalar ham sanab o‘tilishi mumkin.

Lug‘atning qolgan ikki vazifasi professional foydalanuvchilar ehtiyojiga muvofiq. Tarjimonlar lug‘atdan ish jarayonida foydalansa, qiyosiy tilshunoslikda semantik tahlil manbasi sifatida xizmat qiladi. Bu vazifani bajarish uchun tarjima lug‘ati so‘z tarjimasini bilan cheklanmasdan uning kontekstual semalarini ham ochishi, misollar bilan dalillashi, metaforik xususiyatlarini ham ko‘rsatishi zarur. Albatta, o‘zbekcha-inglizcha lug‘atlarning aksariyati bunday mukammallikka ega emas. Ularda so‘z va faqat tarjima ekvivalenti keltiriladi. Bunday yondashuv ma‘nodoshlar tarjimasida ko‘plab takrorlarni yuzaga keltirishi mumkin, biroq semalarni to‘g‘ri farqlash bilan sinonimlar talqini takomillashadi [1;96]:

**muzlamoq** v freeze, be frozen; **muzlab qolmoq**  
freeze over.

**sovimoq** v cool, cool down, get cool, freeze; **ko‘n-  
gil** ~ lose interest, like no longer, cease to like.

**junjimoq** v huddle oneself up; shiver (from cold  
or illness); **sovuqdan** ~ shiver from cold.

**yaxlamoq** v freeze, congeal.



Bu to‘rt leksemadan *muzlamoq* va *yaxlamoq* bir-birining to‘liq muqobili, shuning uchun tarjimada bir xil leksema qo‘llangan. Shuningdek, tarjimada mutlaq sinonim taqdim etilgan. *Sovimoq* va *junjikmoq* esa bir-biridan sovish darajasiga ko‘ra farqlanadi. *Sovimoq* bu guruhda ma‘no dominantasi, *junjikmoq* esa yengil sovish holatini anglatadi. Tarjimalar ham semik tarkibiga ko‘ra aynan muvofiq. Leksemalarni daraja qatorida sovish holatining ortib borishiga ko‘ra *junjikmoq* – *sovimoq* – *muzlamoq* / *yaxlamoq* tartibida joylashtirish mumkin.

*Charchamoq*, *toliqmoq*, *horimoq* so‘zlari ham bir-biridan farqlanuvchi, qisman ma‘nodosh bo‘ladi. Ularning tarjimasi lug‘atda quyidagicha berilgan [1;101]:

**charchamoq** *v* be tired, be exhausted, weary;  
**yashirinishdan charchadim** I‘m tired of hiding.

**toliqmoq** *v* tire.

**hordiq** *n* tiredness, fatigue; rest; ~ **chiqarmoq**  
have a rest (*recreation*).

**horimoq** *v* be tired.

**horg‘in** *a* tired, weary, tiresome, exhausted.

Birinchi so‘z bu guruhning ma‘noviy dominantasi, *toliqmoq* esa yengil charchoqni anglatadi, biroq tarjima *charchamoq* so‘zi bilan aynan bir xil leksemadek tarjima qilingan. Bir necha so‘zlar derivatsiyasiga asos bo‘lgan *horimoq* fe‘li esa bu guruhda eng yuqori charchoq darajasini, ya‘ni butkul holdan toyish holatini anglatadi. Biroq aynan uning tarjimasida ham yana *to be tired* leksemasi qo‘llangan. So‘z shakllari tarjimasida esa ayni muqobili *to be exhausted* so‘zi uchraydi. Fikrimizcha, lug‘at tuzuvchilari takrorlar bo‘lmasligi uchun turli shakllarda farqli tarjima leksemalarini taqdim etishga urinishgan. Bu guruhda daraja qatori *toliqmoq* – *charchamoq* – *horimoq* ko‘rinishida bo‘ladi.

Ma‘nodoshlarni mutunosibligiga ko‘ra darajalash turli ko‘rinishda bo‘ladi. Daraja qatori esa ingliz tilidagi aniq muqobilni topish, belgilashga ko‘mak beradi. Darajalash tartibi bir necha tamoyillarga ko‘ra amalga oshirilishi mumkin. Masalan, eng asosiy tartib semantik yaqinlik asosida shakllanadi. Masalan, *kasallanmoq* fiziologik holatiga *madorsizlanmoq*, *majolsizlanmoq*, *tinkasi qurimoq*, *holsizlanmoq* so‘zlarini sinonim deb belgilaymiz. Bunda asosiy dominant *kasallanmoq* leksemasiqa eng yaqin leksemadan eng uzog‘i tomonga harakatlanamiz. Yana bir tartib intensivlik darajasining ortib borishi asosida bo‘ladi. Bu ayniqsa holat fe‘llariga mos bo‘lgan yondashuvdir. Jadallik tarz ma‘nosining ortib borishini *isimoq*, *qizimoq*, *istimalamoq* holat fe‘llari misolida ko‘ramiz. Og‘riqning ortib



borishiga ko‘ra *simillamoq* – *jazillamoq* – *lo‘qillamoq* leksemalarini tartiblash mumkin. Bunda holatning belgisi ortib, aniqlashib boradi. Tarjimada ayni ortiq darajadagi variant bo‘lmasa guruhning dominant ma‘no leksemasi tarjimasi qo‘llanishi lozim.

So‘zlar nafaqat lug‘aviy ma‘nosidagi ayrim belgilar asosida tartiblanishi, balki uslubiy ko‘rsatkichiga ko‘ra ham darajalanishi mumkin. Daraja qatorining boshida maksimal darajada neytral leksema turadi: *nafas olmoq* – *hansiramoq* – *pishillamoq*.

Leksemalarni muayyan nutqiy doiraga xosligiga ko‘ra ham tartiblash mumkin. Qator boshida neytral leksemalar, qator davomida rasmiy / norasmiy tusning ortib borishini ta‘minlaydi: *og‘rimoq* – *lo‘qillamoq*. Demak, daraja qatorida tartiblash leksikografik talqinda muqobil leksemani topish imkonini yaratadi, shuning uchun sinonimlar orasida mos birlikni tanlashda tuzuvchilar fiziologik holatni quyidagi parametrlarga ko‘ra tartiblashi kerak:

1. Semantik yaqinlik darajasi;
2. Intensivlik darajasi;
3. Uslubiy bo‘yoqdorlik darajasi;
4. Qo‘llanish doirasining cheklanganlik darajasi.

Ba‘zi o‘rinlarda so‘z ma‘nosini o‘g‘irishda frazeologik yondashuvni ham qo‘llash mumkin. Bu yondashuvlarning qaysi birini qo‘llash zarurati borligini to‘g‘ri baholash mumkin. Subyekt holatini anglatuvchi fe‘llarni to‘g‘ri leksikografik talqin qilish uchun semantik tahlilga murojaat qilamiz. Ma‘no ko‘lami lug‘aviy, kontekstual va grammatik semalarga ajratish kerak. Bu tasnifdagi lug‘aviy ma‘nolarni boshqa tizimda diskriminatsiya qilish (ajratib ko‘rsatish) [2;127], bir lug‘aviy ma‘noning tarkibidagi kontekstual semalar alohida olinmasligi kerak. Lug‘aviy ma‘nolarni raqamlash, kontekstual ma‘nolarni esa harflar bilan belgilash to‘g‘ri yechim bo‘ladi. Leksikografik tarjimada adekvat va ekvivalent vositani tanlash uchun semantik tahlil va ma‘nodoshlar darajalanishi muhim rol o‘ynaydi. Avvalambor, fiziologik holat fe‘llari orasida dominant ma‘nolar ajratiladi. Masalan, turli tillarda quyidagi fe‘llar asosiy fiziologik holatlarni anglatadi, ulardan keyin qator ma‘nodoshlarni terish mumkin:

**1. Kasallanmoq** – *og‘rimoq, jizillamoq, madorsizlanmoq, holsizlanmoq, hushsiz bo‘lmoq, boshi aylanmoq, ko‘zi tinmoq*

**2. Charchamoq** – *toliqmoq, holdan toymoq, tinkasi qurimoq, majolsizlanmoq, qarimoq*

**3. Isimoq** – *qizimoq, istimalamoq, terlamog, tashnalanmoq, chanqamoq*



4. **Sovumoq** – *muzlamoq, varajalamoq, yaxlamoq, junjimoq*
5. **Yotmoq** – *yastanmoq, cho‘zilmoq, yalpaymoq, yonboshlamoq, uzala tushmoq,*
6. **Turmoq** – *suyanmoq, istiqomat qilmoq, yashamoq.*
7. **Tetiklashmoq** – *jonlanmoq, yosharmoq, tuzalmoq, o‘nglanmoq, tiklanmoq, barq urmoq, gullamoq*
8. **Titramoq** – *qaltiramoq, tebranmoq, dukillamoq, chayqalmoq*
9. **Nafas olmoq** – *harsillamoq, pishillamoq, esnamoq, yo‘talmoq, aksirmoq, hiqillamoq.*
10. **Ochiqmoq** – *darmonsizlanmoq, to‘ymoq, qonmoq.*
11. **Qizarmoq** – *oqarmoq, qoraymoq, kuymoq, ko‘karmoq, sarg‘aymoq*

Bu ma’nomlar dominant deb ajratilgan, albatta fiziologik holatlar faqat shu dominantlar doirasida cheklanmasligi mumkin. Ajratilgan dominantlar tarkibidagi boshqa leksemalar tarjimasini belgilab olish bilan fiziologik holat fe’llarining leksikografik talqini haqida umumiy tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin. O‘zbekcha-Inglizcha lug‘atlar passiv harakterga ega, ya’ni ular ma’lum grammatik va leksik bazaga ega o‘quvchiga tarjima ekvivalentlarini taklif qiladi. Bu lug‘atlarni faol manbaga aylantirish uchun tarjimaga ham qomusiy yondashish lozim. Qomusiy yondashuvda nafaqat so‘z tarjimasini, balki uning ma’nosi qisqacha izohi ham keltirilishi kerak. Ya’ni, talqinda izoh avval berilib, undan so‘ng ayni ekvivalent tarjima ilova qilinsa so‘zni eslab qolish, xotiraga muhrlash osonlashadi. Agar bu izoh va tarjima ekvivalenti misol bilan mustahkamlansa, o‘quvchi so‘zning sintaktik xususiyatlari, voqelanish nutqiy doirasi va birikuv ko‘lami haqida batafsil tushuncha hosil qiladi. Agar fiziologik holat fe’llari asosida o‘quv tarjima lug‘ati tuzish zarurati bo‘lsa, so‘zlar alifbo tartibida emas yuqoridagi ma’no dominantlariga ajratib guruhlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Guruh ichidagi elementlarni esa intensivlik, ma’nodoshlik va uslubiy xususiyatiga ko‘ra daraja qaroriga qo‘yish mumkin. Tartiblangan lug‘at birliklari talqini quyidagi elementlar ketma-ketligidan tashkil topadi:

1. Leksik birlik
2. Grammatik ko‘rsatkich
3. Ma’no izohi
4. Tarjima
5. Misol

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:  
MUAMMO VA YECHIMLAR”  
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



Shular sirasida izoh qismidan tashqari barcha elementlar tarjima lug‘atlarida uchraydi. Aynan izoh, tarjima ekvivalenti va misol uyg‘unligi lug‘atni shunchaki axborot manbai, passiv manbadan til o‘rgatish, leksikani yodlatishga qodir faol lingvodidaktik resursga aylantiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Irisqulov A., Bo‘tayeov Sh. Inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha lug‘at.– Toshkent: Ilmiy, 2008. -288 b.
2. Rundell, M. Changing the rules: Why the monolingual learner’s dictionary should move away from the native-speaker tradition. In: Snell-Hornby, cd. 1988. -137 p.
3. Nazarov S., Nazarova F., Poltayeva D., Adizova N. English-uzbek dictionary. Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at – Toshkent: Niso Poligraf, 2013. -269 b.
4. Zgusta, L. Translational Equivalence in Bilingual Lexicography Bhukośyam, Dictionaries, vol. 9 (1987): 1-47 (also, abridged, in Hartmann, ed. 1984: 147-159). -312 p.